Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqot loyihalari va tijoratlashtirish faoliyati mexanizmi

Inoyatov Mardonbek Mo‘min o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Budjet hisobi va g‘aznachilik kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlarni hamda xizmatlarni moliyalashtirishning ilmiy samaradorlikka ta’siri va uning tamoyillari keltirib o‘tilgan.

Ushbu tadqiqot ilmiy moliyalashtirishning kuzatilgan ta’sirlarini o‘rganishga qaratilgan izlanishlarga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, muassasa, ilmiy tadqiqot, loyiha, ish-xizmatlar, sarmoya, tijoratlashtirish, tadqiqotni moliyalashtirish, ilmiy samaradorlik, dinamik baholash.

Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini yuqori darajaga olib chiqish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, davlat talablari asosida ta’lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ga ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish”[1] belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasida ilm-fan, innovatsiyalar va ularning iqtisodiyot bilan integratsiyasini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan PQ-3855-sonli “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaror qabul qilinib, u ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish va ularni bozor mexanizmlari orqali iqtisodiy qiymatga aylantirishni jadallashtirishga qaratilgan.

Mazkur Qarorning asosiy maqsadi:

– ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish;

– ilmiy ishlanmalarni real sektor ehtiyojlariga moslashtirish;

– oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarning innovatsion faolligini oshirish;

– ilmiy natijalardan olinadigan iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirishdan iborat.

Oliy ta’lim muassasalari mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy madamniy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ular nafqat malakaliu kadrlar tayyorlash, balki ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan ta’lim xizmatlarini taqdim etishda asosiy hujjat hisoblanadi. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarining barqaror va sifatli faoliyat yuritishi uchun ilmiy tadqiqot loyihalarining samarali tashkil etilishi zarur.

Ilmiy tadqiqot loyihalari oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o‘quv va ilmiy jarayonlarni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarni taqdim etish tizimidir. Biroq, oliy ta’lim sohasining o‘ziga xosligi, ta’lim sifatining doimiy oshirilishi, ilmiy tadqiqotlarga e’tibor qaratilishi va moliyaviy manbalarning ko‘p qirrali bo’lishi bu jarayonni murakkablashtirishi mumkin.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbeksiton Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 5847-son Farmoni 2019 yil 8 oktyabr

Shu ma’noda, oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy resurslarini tashkil etish o’ziga xos yondashuvlarni, innovatsion moliyaviy mexanizmlarni va samarali boshqaruv usullarini talab etadi.

Zamonaviy iqtisodiyotda ilmiy-tadqiqot faoliyati innovatsion rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari (OTM) ilmiy salohiyat markazi sifatida nafaqat ta’lim, balki ilmiy ishlanmalarni amalga oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ilmiy tadqiqot loyihalarini samarali boshqarish esa ularning moliyaviy hisobini to‘g‘ri yuritish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ilmiy loyihalar davlat budjeti, grantlar, xo‘jalik shartnomalari va xalqaro mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladi. Shu sababli buxgalteriya hisobini yuritishda aniqlik, shaffoflik va nazorat muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy-tadqiqot loyihasi — fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar shaklida maqsad va vazifalari, ijrochilari va bajarish muddatlari, manbalari, vositalari (ularning shakllantirish manbalaridan qat’i nazar) ilmiy va (yoki) ilmiy-texnik natijalarni, nou-xau va yangi texnologiyalarni olishga qaratilgan tashkiliy-texnik va boshqa zarur chora-tadbirlar majmui .

Oliy ta’lim muassasalari o‘z faoliyatini, ayniqsa asosiy va qo‘shimcha yo‘nalishlarda, ilmiy-tadqiqot natijalariga tayanib tashkil etishi orqali o‘z-o‘zini moliyalashtirishga xizmat qiluvchi daromad manbalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ilmiy-tadqiqot faoliyatining rivoji bir tomondan, bozor talablari asosida yangilanayotgan bilimlarni talabalar ongiga singdirishga xizmat qilsa, boshqa tomondan, tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish orqali universitetlar uchun qo‘shimcha moliyaviy imkoniyatlar yaratadi. Mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar oliy ta’lim muassasalarining faoliyatini zamonaviy jamiyat talablariga mos holda tashkil etish hamda ularning ijtimoiy taraqqiyotdagi rolini kuchaytirishga yo‘naltirilgan. 2017-yildan boshlab ta’lim sohasida boshlangan islohotlar, ayniqsa 2019-yildan e’tiboran oliy ta’lim tizimidagi tub tarkibiy o‘zgarishlar, sohani xalqaro standartlar asosida rivojlantirish va rivojlangan davlatlar tajribasiga moslashtirishni ko‘zda tutmoqda. Shu jihatdan, davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta’lim muassasalarini “Universitet 3.0” konsepsiyasi doirasida rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, bir tomondan, mazkur muassasalarni bozor iqtisodiyoti sharoitida barqaror faoliyat yurituvchi subyektlarga aylantirsa, ikkinchi tomondan, innovatsion rivojlanish uchun zarur poydevorni shakllantirishda ularning ahamiyatini oshirmoqda.

Davlat buyurtmasiga kiritish uchun tematik loyiha e’loni doirasida takliflarni shakllantirish jarayoni ilmiy asoslangan, tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayonda, avvalo, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari, ilm-fan va innovatsion faoliyatning dolzarb muammolari, shuningdek, tegishli sohalarda mavjud ehtiyoj va muammolar chuqur tahlil qilinishi lozim. Shundan kelib chiqib, taklif etilayotgan ilmiy loyihalarning maqsadi, vazifalari, kutilayotgan natijalari va ularning amaliy ahamiyati aniq va asosli tarzda bayon etilishi zarur.

Bundan tashqari, loyiha takliflarini shakllantirishda ilmiy yangilik darajasi, natijalarning amaliyotga joriy etilish imkoniyati, iqtisodiy samaradorligi hamda raqobatbardoshligi alohida e’tiborga olinadi. Takliflar ilmiy jihatdan asoslangan, moliyaviy hisob-kitoblari aniq, bajarilish mexanizmlari puxta ishlab chiqilgan bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, loyihaning bajarilish muddatlari, resurs ta’minoti, ijrochilar tarkibi va ularning ilmiy salohiyati ham batafsil ko‘rsatib o‘tiladi.

Natijada, davlat buyurtmasiga kiritish uchun taqdim etiladigan tematik loyiha takliflari nafaqat ilmiy jihatdan dolzarb, balki amaliyotga yo‘naltirilgan, iqtisodiyot tarmoqlariga real foyda keltiradigan hamda mamlakatning innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladigan bo‘lishi talab etiladi.

Yana bir muhim jihat – bu loyiha takliflarining ijtimoiy ahamiyatini asoslab berishdir. Ya’ni, taklif etilayotgan ilmiy tadqiqotlar aholining turmush darajasini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, ekologik muammolarni hal etish yoki boshqa ijtimoiy masalalarni yechishga qanday hissa qo‘shishi aniq ko‘rsatib berilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.E. Axmedov. Ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasida intellektual salohiyatli yoshlar – mamlakat taraqqiyotining kafolati “ ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasida intellektual salohiyatli yoshlar – mamlakat taraqqiyotining muhim omili”.// XIII respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –Samarqand: SamDAQI, 2016. –b. 3-4.

2. O‘zbekison Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”.// Toshkent shahri, 2021- yil 1-aprel.

3. Lijing Yang, Brian McCall: World education finance policies and higher education access: A statistical analysis of World Development Indicators for 86 countries // International Journal of Educational Development, 35: 25-36, 2014.

4. Brett, C. & Weymark, J.A. Financing Education Using Optimal Redistributive Taxation. 2003.

5. Qurbonov O.B. Oliy ta’lim tizimini moliylashtirish manbalari va ulardan samarali foydalanish masalalari.//Ilm-fan xabarnomasi, Volume 6,issue 2,Mart 2025.

6. M.Umarova, M.Sultanboyeva. Turli mamlakatlarda oliy ta’limni moliyalashtirish yo‘llari.//Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, Vol. 2 No. 12. 2024.